



TURIZM SOHASIDA INVESTITSIYALARNI BOSHQARISH JARAYONLARINI MODELLASHTIRISH VA FAOLIYATNI BOSHQARISH ISTIQBOLLARI

DSc Mirzayev Abdullajon
Farg'ona davlat universiteti
ORCID: 0000-0002-4261-8752
abdubehr@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada turizm sohasida investitsiyalarni boshqarish jarayonlarini modellashtirish va faoliyatni samarali boshqarishning ustuvor yo'nalishlari nazariy va ilmiy jihatdan tadqiq etilgan. Maqolada investitsiya faoliyati va turizm sohasidagi investitsiya faoliyati atamalariga xorijlik va mamlakatimiz olimlarining yondashuvlari qiyosiy tahlili asosida mualliflik ta'rifi shakllantirildi, Tadqiqot jarayonida 2024-2025-yillar oralig'idagi turizm industriyasida kiritilgan investitsiyalar hajmi va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omil ko'rsatkichlarining korrelyatsion-regression tahlili asosida modellashtirildi va 2030-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqildi. Shu bilan birga, turizm sohasini samarali boshqarish uchun uning investitsion jozibadorligini baholashga ilmiy-uslubiy yondashuv taklif etildi va amaliyotda foydalanish yo'nalishlari asoslandi.

Kalit so'zlar: turizm, investitsiya, investitsiya faoliyati, turizm sohasida investitsiya faoliyati, integratsiyalashuv, investitsion jarayonlar, turistik xizmatlar, hududiy investitsiya dasturlari, turistik resurslar, turizm industriyasi, boshqarish, turizm sohasini boshqarish.

МОДЕЛИРОВАНИЕ ПРОЦЕССОВ УПРАВЛЕНИЯ ИНВЕСТИЦИЯМИ В СФЕРЕ ТУРИЗМА И ПЕРСПЕКТИВЫ УПРАВЛЕНИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ

DSc Мирзаев Абдуллажон
Ферганский государственный университет

Аннотация. В статье теоретически и научно исследованы приоритетные направления моделирования процессов управления инвестициями в сфере туризма и эффективного управления деятельностью. На основе сравнительного анализа подходов зарубежных и отечественных ученых понятие инвестиционной деятельности в сфере туризма сформировано авторское определение. В ходе исследования на основе корреляционно-регрессионного анализа смоделированы объем инвестиций, вложенных в туристическую индустрию в 2024–2025 годах, и факторы, влияющие на его изменение, а также разработаны прогнозные показатели до 2030 года. Кроме того, предложен научно-методический подход к оценке инвестиционной привлекательности сферы туризма и обоснованы направления его практического применения.

Ключевые слова: туризм, инвестиции, инвестиционная деятельность, инвестиционная деятельность в сфере туризма, интеграция, инвестиционные процессы, туристические услуги, региональные инвестиционные программы, туристические ресурсы, туристическая индустрия, управление, управление сферой туризма.

MODELING INVESTMENT MANAGEMENT PROCESSES IN THE TOURISM SECTOR AND PROSPECTS FOR ACTIVITY MANAGEMENT

DSc **Mirzayev Abdullajon**
Fergana State University

Abstract. *The article theoretically and scientifically examines the priority directions of modeling investment management processes in the tourism sector and effective activity management. Based on a comparative analysis of approaches by foreign and domestic scholars to the concepts of investment activity and investment activity in the tourism sector, an author's definition is formulated. In the course of the study, the volume of investments in the tourism industry for 2024–2025 and the factors influencing its changes were modeled using correlation-regression analysis, and forecast indicators up to 2030 were developed. In addition, a scientific and methodological approach to assessing the investment attractiveness of the tourism sector is proposed, and directions for its practical application are substantiated.*

Keywords: *tourism, investment, investment activity, investment activity in the tourism sector, integration, investment processes, tourism services, regional investment programs, tourism resources, tourism industry, management, tourism sector management.*

Kirish.

Jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv jarayonlari tobora murakkablashib borayotgan hozirgi davrda turizm sohasini barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM)ga erishish omil va mexanizmlaridan samarali foydalanish asosida insonlarning mehnat jarayonidagi ruhiy va jismoniy zo'riqishlarini oldini olish masalasi muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyat kasb etib, istiqbolda hal etishni talab etayotgan dolzarb muammolardan biriga aylanmoqda.

Jahonda turistik xizmatlar sohasini innovatsion rivojlantirish, investitsiyalash usullari hamda ularni istiqbolli va yuqori texnologiyalarga asoslangan tarmoqlarga joylashtirish mexanizmlarini takomillashtirish, investitsiya muhiti jozibadorligini oshirish yo'nalishlarida qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu jarayonda turistik xizmatlar sohasining rivojlanish yo'nalishlarini belgilash va milliy iqtisodiyotda turizmni rivojlantirish modelini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunda turizm sohasiga investitsiyalarni jalb qilish, turistik majmualar va turistik klasterlarni tashkil etish hamda turizmning iqtisodiyotdagi multiplikativ samarasini aniqlash muhim masalalar qatoriga kiritilgan.

Yangi O'zbekistonni barpo etish sharoitida turizm sohasiga funksional (tarkibiy tuzilmalar) asosidagi va boshqa tarmoqlardan kiritiladigan qo'shilgan qiymat ulushini oshirish orqali iqtisodiy samaradorlikni barqarorlashtirish va turistik xizmatlar diversifikatsiyasini samarali boshqarish orqali kiruvchi turistlar sonini oshirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

O'zbekiston iqtisodiyotining o'sishida investitsion jarayonlar rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatgani holda iqtisodiyotning texnik-texnologik holatini raqobatbardosh darajada barqaror saqlab turish, hukumatimiz tomonidan o'tkaziladigan investitsion siyosatni sifat jihatidan rivojlanishning yangi bosqichiga olib chiqish, investitsion va tadbirkorlik iqlimini, xususan, milliy iqtisodiyotning strategik sektori bo'lgan turizm sohasida tubdan yaxshilashda alohida ahamiyat kasb etadi.

Jahon iqtisodiyotida ro'y berayotgan tezkor o'zgarishlar, yangilanishlar va rivojlanishlar har bir davlatdan faol iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan samarali islohotlarni amalga oshirish va uni takomillashtirib borishni taqozo etadi. Bunday yuqori darajadagi e'tibor va mas'uliyatni talab etgan holda olib boriladigan ichki hamda tashqi siyosatda milliy iqtisodiyotning ustuvor strategik manfaatlarini joriy davr va uzoq istiqbolda ham ro'yobga chiqarish shuningdek himoyalashga erishish keng ko'lamlı chora-tadbirlarni izchil amalga oshirish bilan ta'minlanadi, biroq, bu tadbirlarni iqtisodiyot tarmoqlari va sohaslariga ichki hamda tashqi sarmoyalarni faol jalb etmasdan turib amalga oshirib bo'lmasligini nazarda

tutsak, jahonda investitsiyalar iqtisodiyotning bugungi barqarorligi va jadal o'sishini ta'minlovchi bosh omil sifatida e'tirof etilayotganligi bejizga emasligini anglash mumkin.

Adabiyotlar sharhi.

Turli iqtisodiy adabiyotlarda "investitsiya faoliyati" tushunchasi mazmun-mohiyatiga turlicha ta'riflar berilgan. Ularni chuqur va keng tadqiq etib o'tgan holda, investitsiya faoliyati mazmuniga berilgan quyidagi ta'riflarga alohida to'xtalib o'tishni lozim.

Iqtisodchi olim Neshitoyning fikricha, "Investitsion faoliyat – bu daromad olish va foydali samaraga erishish maqsadida mablag'larni joylashtirish (investitsiyalash) va amaliy harakatlarni amalga oshirish yig'indisidir" - deb ta'rif bergan. (Nashitoy, 2007).

Bunga o'xshash ta'riflarni yana quyidagi iqtisodchi olimlar talqinida ham ham ko'rish mumkin. Jumladan, Rossiyalik iqtisodchi – olim V.Bocharevning fikricha: "Investitsiya faoliyati – davlat, fuqarolar va huquqiy shaxslarning investitsiyalarni amalga oshirishdagi amaliy harakatlari yig'indisi"ni anglatadi (Bocharev, 1998)Mualliflar A.Arzimiyana va boshqalar: "Investitsiya faoliyati investitsiya qo'yish yoki investitsiyalash hamda investitsiyalarni amalga oshirishdagi amaliy harakatlar yig'indisi", deb ta'riflaydi (Arzimina va boshq., 1994).

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan M.Angelidi va D.G'ozibekovlar ham investitsiya faoliyatini yuqorida berilgan ta'riflarga yaqin ifodalagan (Gazibekov, 1994). Ushbu ta'riflarning barchasida investitsiya faoliyatiga mazmunan bir xil tarzda yondashilgan bo'lib, ular investorlarning investitsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq harakatlarini aks ettirganlar.

Turizm sohasiga yo'naltirilayotgan investitsiyalar yoki investitsion faoliyat atamaları ham olimlar tomonidan turlicha ochib berishga harakat qilingan. Jumladan: V.P.Popkov va V.Semenovlar tomonidan berilgan ta'rifda ham kuzatish mumkin, ya'ni "Turizm sohasidagi investitsiya faoliyati – sohaga investitsiyalarni kiritish yoki investitsiyalash, investitsiyalarni amalga oshirish bo'yicha davlat, yuridik shaxslar va fuqarolarning amaliy harakatlari yig'indisi sifatida o'zini namoyon etadi" deb ta'riflaydi (Popkov va boshq., 2001).

Igonina esa investitsiya faoliyati mazmuniga ham keng, ham tor mazmunda ta'rif berish mumkinligini ta'kidlab o'tadi. Ushbu atamaga keng ta'rif berilganida: "turizm sohasidagi investitsiya faoliyati – bu mablag'larni investitsiyalash obyektlariga ya'ni turistik faoliyatga yoki korxonalariga daromad (samara) olish maqsadida kiritish bilan bog'liq faoliyat" sifatida tushunishni taklif etadi (Igonina, 2005).

Mamatov, Xujamkulov, Nurbekovlar esa turizm sohasida investitsiya faoliyati mazmunini xos uslubda tadqiq etishga muvaffaq bo'lgan. Ular tomonidan berilgan ta'rifga ko'ra, "Keng ma'noda, turizm sohasidagi investitsiya faoliyati – bu g'oyalarni ishlab chiqish va investitsiya loyihalarini asoslash, ularni moddiy-texnik va moliyaviy ta'minlash, buning natijasida barpo etilayotgan obyekt faoliyatini boshqarish va investorlarning o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish imkoniyatlarini ham aks ettiradi" deb ta'riflashadilar (Mamatov, 2014).

Fikrimizcha, turizm sohasidagi investitsiya faoliyatiga berilgan tariflar, uning mohiyatini to'la ochib berolmaydi. Chunki, turizm sohasi investitsiya faoliyatida investitsiyalarning ketma-ketligi va ularning o'zgaruvchanligi, ya'ni resurslar (qiymatliklar) qo'yish (xarajatlar) va investitsiya natijasida samara (foйда, daromad) olish yotishi kerak. Agar samara olinmasa investitsiyalashga rag'bat ham bo'lmaydi. Turizm sohasidagi investitsiya faoliyati investitsiyalashning eng asosiy markaziy bo'g'ini hisoblanadi, chunki aynan ana shu jarayonda investitsiya bir ko'rinishdan ikkinchi ko'rinishga o'tadi, ya'ni jamg'armalar (resurslar), qo'yilmalar (xarajatlar), kapital mulk (tayyor mahsulot), iqtisodiy yoki ijtimoiy samara (daromad, foyda) shaklini oladi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Jahon xo'jaligida turizmni tez sur'atlar bilan rivojlantirish, uning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini bartaraf etishdagi rolini keskin oshirish maqsadida sohaga investitsion resurslarni keng jalb etish, makro va mikrodarajalarda ulardan foydalanish samaradorligini

oshirish, innovatsion investitsiyalarni rag'batlantirish va ularni tarmoq yuksalishining yetakchi omiliga aylantirish, mazkur sohadagi o'zgarish tendensiyalarini aniqlash, innovatsion jarayonlarni faollashtirish dastaklarini ishlab chiqish, ularni amaliyotga joriy etishga oid ilmiy tadqiqotlarga e'tibor tobora kuchayib, dolzarblashib bormoqda.

O'zbekiston iqtisodiyotining o'sishida investitsion jarayonlar rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatgani holda iqtisodiyotning texnik-texnologik holatini raqobatbardosh darajada barqaror saqlab turish, hukumatimiz tomonidan o'tkaziladigan investitsion siyosatni sifat jihatidan rivojlanishning yangi bosqichiga olib chiqish, investitsion va tadbirkorlik iqlimini, xususan, milliy iqtisodiyotning strategik sektori bo'lgan turizm sohasida tubdan yaxshilashda alohida ahamiyat kasb etadi.

Turistik xizmatlar sohasining jozibadorligi unga yuqori salohiyatli investorlarni keng jalb qilishning bir qator xususiyatlari bilan tavsiflanadi, xususan, investitsion loyihalarning etarlicha tez qoplangani holda, boshqa tarmoqlarga taqqoslaganda investitsion mablag'lar juda katta hajmda talab qilinmaydi. Misol uchun, sanoat ishlab chiqarishiga juda yirik miqdorda investitsiyalar talab qilinadi, qoplanish muddati nisbatan katta, ayniqsa, turizmga qaraganda tavakkalchilik va xatarlilik darajasi ham yuqori sanaladi (Kafiyev, 2008).

O'zbekiston Respublikasida turizm sohasidagi investitsiya dasturlari milliy va xalqaro darajadagi transport yo'laklarini, tegishli turistik infratuzilma obyektlarini rivojlantirish, turistik rasmiyatchiliklarni soddalashtirishni nazarda tutadi. Bu esa, mehmonxonalar va restoranlar tarmog'ini, avtomobillarga yoqilg'i quyish shohobchalari, ko'ngilochar muassasalar tarmog'i, avtomobillarning pullik to'xtab turish joylari va hududlardagi turistik infratuzilmaning boshqa obyektlarini tashkil qilishga ta'sir ko'rsatadi. Bunday dasturlar hududlarda turizm sohasidagi u yoki bu investitsiya loyihalarining nafaqat jozibadorligini aniqlaydi, balki turizm va uning asosiy infratuzilmalari hamda ko'rsatiladigan vazifalarning samarali, tizimli echilishiga ham imkon beradi (Salayev, 2020).

Hududiy investitsiya dasturlari hududlarni rivojlantirishning bosh rejalari va hududiy rejalashtirish asosida turizm sohasining alohida yo'nalishlari va muayyan investitsiya loyihalarini asoslaydi. Davlat investitsiya dasturlari va ularning ustuvor yo'nalishlari esa turizm infratuzilmalaridan bo'lgan tarixiy va madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, ulardan ratsional va samarali foydalanish, shuningdek, alohida muhofaza qilinadigan milliy tabiiy hududlar obyektlarini, turistik, ayniqsa, ekoturistik, landshaft turizmiga oid er va tabiiy resurslardan samarali foydalanish, hamda muhandislik va transport infratuzilmasini rivojlantirish hisoblanadi. Bunda, albatta, har bir mintaqa yoki hududning maqsadli davlat dasturlari ham inobatga olinishi lozim bo'ladi.

Turistik xizmat ko'rsatish sohasida investitsiya loyihalarini ishlab chiqishning umumiy ketma-ketligi o'ziga xos quyidagi jarayonlarni o'z ichiga oladi:

- turli yo'nalishlardagi turistik resurslarni tahlil qilish va tanlash;
- turizm va hordiq chiqarishning afzal turlarini aniqlab olish;
- turistik-rekreatsion majmua infratuzilmasini tahlil qilish (ishlab chiqarish, ijtimoiy, rekreatsion va h.k.);
- turistik xizmatlar ko'rsatish sohasida yangi obyektlarni tashkil etish uchun dastlabki ustuvor investitsiya loyihalarini tanlab olish;
- loyihalarni amalga oshirish mexanizmini ishlab chiqish.

Turistik resurslarni tahlil qilish va tanlash o'z ichiga tasniflash, baholash, ularni muhofaza qilish, qayta tiklash, tabiiy muhitga mumkin bo'lgan chegaraviy yuklama (ekologik bosim)larni inobatga olgan holda foydalanish tartibini oladi. Resurslar, shart-sharoitlar, cheklovlarni tahlil qilish va baholash asosida turistik xizmat ko'rsatishning muayyan sohalari tavsiya qilinishi, u yoki bu turizm turini rivojlantirish uchun hududning qulayligi baholanishi mumkin. Bunday baholash asosida turistik resurslardan foydalanish bo'yicha monitoringni amalga oshirish reestrini tuzish mumkin. Mazkur reestr tegishli monitoring o'tkazilgandan

keyin bino va inshootlar qurilishi, er kadastrining bir qismi sifatida qaralishi mumkin (Pardayev va Atabayev, 2006).

Bugungi kunda ushbu olib borilayotgan tadqiqotlarimizning asosi soha faoliyatini qisqa muddatlarda rivojlanishini ta'minlovchi va ko'p daromad keltiruvchi tarmoq tuzilmasini aniqlashda ko'p variantli tadqiqot usullaridan foydalanish orqali turizm industriyasida kiritilgan investitsiyalar hajmi asosidagi ko'p omilli bog'lanish asosida ekonometrik modellar ishlab chiqilib, soha faoliyatini rivojlanish ssenariylarini shakllantirish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Ushbu ishlab chiqilgan model makro darajada turizm industriyasida kiritilgan investitsiyalar hajmiga ta'sir etuvchi omillarni rivojlantirish yo'nalishlarini aniqlash asosida qisqa va o'rta muddatli davr uchun maqsadli prognoz ko'rsatkichlarini aniqlash hamda ushbu ko'rsatkichlarni ta'minlash uchun zarur bo'lgan tadbirlarni belgilashga yordam beradi.

Turizm industriyasida kiritilgan investitsiyalar hajmi o'zgarishini endogen omil sifatida olgan holda uning asosiy omil (resurs)lar ta'sirida o'zgarishi bo'yicha ko'p omilli tahlil amalga oshirildi. Turizm industriyasida kiritilgan investitsiyalar hajmini natijaviy omil sifatida belgilab olgan holda, unga ta'sir etuvchi omil ko'rsatkichlarini soha mutaxassislarining yetakchi ekspertlari ishtirokida o'tkazilgan ekspert tahlili asosida tanlangan quyidagi ko'rsatkichlar tanlandi (1-jadval):

X_1 – kirishga oid turizm iste'moli hajmi;

X_2 – turizm tarmoqlarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar;

X_3 – turizm tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat;

X_4 – turistik maqsadlarda kelgan xorijlik fuqarolar soni.

1-jadval

Turizm industriyasida kiritilgan investitsiyalar hajmi va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omil ko'rsatkichlari

Yillar	Turizm industriyasida kiritilgan investitsiyalar hajmi, mlrd. so'mda (Y)	Kirishga oid turizm iste'moli hajmi, mlrd.so'm (X_1)	Turizm tarmoqlarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar, mlrd. so'm (X_2)	Turizm tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat, mlrd. so'm (X_3)	Turistik maqsadlarda kelgan xorijlik fuqarolar soni, kishi (X_4)
2014	8,9	4546,7	4248,6	9845,4	227475
2015	10,2	6256,3	5492,3	13892,4	191143
2016	29,0	7945,8	6387,2	18654,2	152616
2017	10,9	8975,7	8265,4	20178,9	167394
2018	42,1	10854,6	9546,7	22954,6	224796
2019	75,1	11639,3	10037,7	24742,7	348731
2020	83,2	2489,9	8158,9	22903,6	21693
2021	36,8	4492,9	8243,3	31988,2	44419
2022	130,0	17776,7	11538,8	43426,6	93825
2023	250,5	19592,8	15645,4	48875,7	325468
2024	736,4	22563,4	18975,6	52146,2	478645
2025	849,9	20356,8	18201,6	54710,4	351579,6

Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida ishlab chiqildi

Endogen omil va unga ta'sir etuvchi ekzogen omil ko'rsatkichlarining mohiyati nazariy jihatdan talqin qilinadigan bo'lsa, ta'sir etuvchi omillar sifatida turizm tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat, hamda turizm tarmoqlarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar orqali muhim ta'sirga ega bo'lgan omillarni ifodalasa, faoliyat ko'rsatayotgan turistik firma va tashkilotlar soni va aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot hajmi kabi omil ko'rsatkichlari bir birlik resurs hisobiga natijaviy omilning ijobiy o'zgarish ta'sirini oshirishga xizmat qiladi.

Ajratib olingan asosiy endogen va ekzogen omillarning bog'lanishi asosida turizm industriyasida kiritilgan investitsiyalar hajmining o'zgarish trendlarini aniqlash maqsadida yuqoridagi vaqtli qator ko'rinishidagi ma'lumotlarni EViews10 dasturidan foydalangan holda tahlil qilindi.

Ushbu ma'lumotlardan foydalangan holda turizm industriyasida kiritilgan investitsiyalar hajmi va unga ta'sir etuvchi omillar ta'sirida o'zgarishining ko'p omilli ekonometrik modeli tuzildi. Unga ko'ra ushbu jarayonni ifodalovchi regressiya tenglamasi ishlab chiqildi.

$$\ln Y = -0,84 \cdot \ln X_1 + 1,9 \cdot \ln X_2 + 1,6 \cdot \ln X_3 + 0,4 \cdot \ln X_4 - 26,3 \quad (1)$$

Chiziqli logarifmik model potentsirlanib turizm industriyasida kiritilgan investitsiyalar hajmini ifodalovchi chiziqsiz ko'rinishdagi ekonometrik modelga keltirib olindi:

$$Y = \frac{X_2^{1,9} \cdot X_3^{1,6} \cdot X_4^{0,4}}{X_1^{0,84} \cdot e^{26,3}} \quad (2)$$

Eviews10 dasturiy paketdan foydalangan holda aniqlangan trend modellari asosida 2026-2030 yillarda turistik xizmatlar eksporti hajmi o'zgarishining istiqboldagi ko'rsatkichlari hamda ularni hisoblash uchun eng qulay modellar ro'yxati keltirildi (2-jadval).

2-jadval


Turizm industriyasida kiritilgan investitsiyalar hajmi va unga ta'sir etuvchi omil ko'rsatkichlarining trend modellari hamda 2026-2030 yillar uchun prognoz ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar va ularning omilli modellari	Prognoz ko'rsatkichlari				
	2026	2027	2028	2029	2030
Turizm industriyasida kiritilgan investitsiyalar hajmi, mlrd. so'm $Y = \frac{X_2^{1,9} \cdot X_3^{1,6} \cdot X_4^{0,4}}{X_1^{0,84} \cdot e^{26,3}}$	1085,7	1362,1	1682,3	2049,6	2467,3
Kirishga oid turizm iste'moli hajmi, mlrd.so'm $x_1 = 1696,4 * t$	22053,2	23749,6	25446	27142,4	28838,8
Turizm tarmoqlarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar, mlrd. so'm $x_2 = 1516,8 * t$	19718,4	21235,2	22752	24268,8	25785,6
Turizm tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat, mlrd $x_3 = 4559,2 * t$	59269,6	63828,8	68388	72947,2	77506,4
Turistik maqsadlarda kelgan xorijlik fuqarolar soni, kishi $x_4 = 29298,3 * t$	380877,9	410176,2	439474,5	468772,8	498071,1

Manba: Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Ko'p omilli ekonometrik modeldan foydalangan holda turizm industriyasida kiritilgan investitsiyalar hajmining o'rta muddatda, ya'ni 2014-2030 yillarda o'zgarishi qiymatlarini grafik ko'rinishi ifodalandi (1-rasm).

Yuqoridagi omilli bog'lanishlar asosida turizm sohasining rivojlanishida eng muhim deb topilgan ko'rsatkichlarning natijaviy ko'rsatkichi hisoblangan turizm industriyasida kiritilgan investitsiyalar hajmiga omillar ta'siri asosidagi rivojlanishning ko'p variantli ssenariylaridan biri ishlab chiqildi. Aniqlangan trendlardan foydalanish sohaga kiritilayotgan resurs hajmini to'g'ri taqsimlagan holda resurs birligidan olinadigan samarani optimallashtirish imkonini beradi.



1-rasm. Turizm industriyasida kiritilgan investitsiyalar hajmi ko'rsatkichining 2014-2030 yillarda o'zgarishi, mlrd so'm (2026-2030- yil prognoz ko'rsatkichlari)

Manba: Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan

Ko'p omilli bog'lanish asosida aniqlangan trend modellari kelgusi davrda soha faoliyati asosiy ko'rsatkichlarining tanlangan omillar ta'sirida ma'lum bir chegaradagi xatoliklarni hisobga olgan holda o'zgarishini oldindan prognozlash imkonini beradi. Tadqiqot jarayonida turizm industriyasida kiritilgan investitsiyalar hajmining o'zgarishi ham 4 ta asosiy omil ta'sirida kelgusi davr uchun prognoz qiymatlarni aniqlashda qo'l keladi.


Yuqorida ishlab chiqilib amaliyotda foydalanish uchun taklif etilayotgan model va shu kabi ssenariylardan foydalanishda turizm xizmatlari faoliyatida foydalanish asosida turizm industriyasida kiritilgan investitsiyalar hajmini oshirish nuqtai nazaridan kiritilayotgan resurslar (ekzogen omillar) hajmini har bir birlik qo'shimcha kiritilayotgan resurs birligidan olinadigan samarani hisobga olgan holda belgilash sohada turistik xizmatlar eksporti hajmini optimal ta'minlash imkonini beradi hamda turizm faoliyatini muvozanatlashgan holda barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

Turizm sohasida investitsiyalarni boshqarishning pirovard natijalarini baholashda turistik talkilotlar rahbarlari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra ularning turizmini rivojlantirishda marketing strategiyasini joriy etish zarurligi hamda ular ushbu strategiyani ishlab chiqishga tayyorligini aniqlash imkonini berdi. Javoblar qiymatlari yig'indisi 100 % dan sezilarli darajada yuqori bo'lgan so'rov natijalari zamonaviy rahbarlarda ushbu yo'nalishda bir emas, balki bir vaqtning o'zida bir nechta strategik maqsadlar mavjudligi tendensiyasini ko'rsatdi. Respondentlarning aksariyati (75%) turistik korxonalarda turizm sohasiga marketing strategiyasini joriy etish ularning investitsion jozibadorligini oshirishiga ta'sir qilishini tasdiqladi. Aynan shu holat turizm sohasini samarali boshqarish uchun turizm sohasini investitsion jozibadorligini baholashning ilmiy-uslubiy yondashuvini ishlab chiqishni taqozo etdi (2-rasm).

Ushbu yondashuv maqsadlar, vazifalar, tamoyillar, baholash usullari, diagnostika darajalari, hisoblash ko'rsatkichlari tartibini belgilashni nazarda tutadi. Turizm sohasining investitsion jozibadorligini aniqlash umumlashtiruvchi indikatorlar - uning makro, mezo va mikro darajalardagi jozibadorlik indekslarini hisoblashga asoslanadi. Ushbu indekslar asosida investitsion jozibadorlikning integral indeksi hisoblanadi.

Har bir darajaning tahlilini turizm sohasiga ta'sirini hisobga olgan holda baholash ko'rsatkichlarini tizimlashtirish va hisoblash asosida o'tkaziladi. Buning natijasida har bir darajadagi rivojlanish indeksleri turizm sohasini boshqarishning investitsion jozibadorligining

integral indeksi olinadi. Bu indekslar uchta yo'nalishni miqdoriy va sifat jihatdan baholash asosida, ularning xususiy jozibadorlik indeksleri bo'yicha va har bir yo'nalishning ahamiyatini hisobga olgan holda hisoblanadi.



2-rasm. Turizm sohasini samarali boshqarish uchun uning investitsion jozibadorligini baholashga ilmiy-uslubiy yondashuv

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Turizm sohasini rivojlantirishning investitsiyaviy boshqaruv jozibadorligi integral indeksi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$IIP_{PT} = \left(\sum ad + \sum xd \right) + \left(\sum bd + \sum yd \right) + \left(\sum cd + \sum zd \right) \xrightarrow{\max} 100\%$$

Bu yerda, IIP_{PT} - turizm sohasini rivojlantirishda investitsiyalarni boshqarish samaradorligi integral indeksi;

a - turizm sohasini boshqarish nuqtai nazaridan davlatning investitsion jozibadorligi ko'rsatkichi (makro daraja);

x - turizm sohasini boshqarish nuqtai nazaridan davlatning investitsion jozibadorligi ko'rsatkichi (makro daraja);

b - turizm sohasini boshqarish nuqtai nazaridan hududning investitsion jozibadorligi ko'rsatkichi (mezo daraja) (umumiy tarmoq ko'rsatkichi);

y - turizm sohasini boshqarish nuqtai nazaridan turistik korxonaning investitsion jozibadorligi ko'rsatkichi (mezo daraja) (turizm ko'rsatkichi);

c - turizm sohasini boshqarish nuqtai nazaridan turistik korxonaning investitsion jozibadorligi ko'rsatkichi (mikro daraja) (turizm sanoati ko'rsatkichi);

z - turizm sohasini boshqarish nuqtai nazaridan turistik tashkilotning investitsion jozibadorligi ko'rsatkichi (mikro daraja) (turistik tashkilotlar ko'rsatkichi);

d - har bir ko'rsatkichning salmog'i.

Turizm sohasiga kiritilayotgan investitsiyalarni boshqarish bir qancha omillarini hisobga olgan holda baholanadi. Bu investitsiyalarni boshqarish samaradorligi ko'rsatkichlarni ekspertlar balli tizimda baholaydilar va shu asosda boshqaruv samaradorligini ma'lum toifalarga bo'lgan holda, ta'sir darajasi o'rganiladi. Ekspertlar fikriga ko'ra turizm sohasiga kiritilayotgan investitsiyalarni boshqarishning yuqorida keltirilgan matematik ifoda bo'yicha hisob-kitob natijasida erishishi mumkin bo'lgan eng yuqori qiymat 100 foizga teng. Bunday holda, turizm sohasini samarali boshqarishning investitsion jozibadorlik ko'rsatkichi namunali hisoblanadi, bu esa turistik tashkilotlarda mazkur ko'rsatkichning eng yuqori darajasiga erishilganligini anglatadi.

Xulosa va takliflar.

Xulosa sifatida ta'kidlash mumkinki, turizm sohasida investitsiyalarni boshqarish jarayonlarini ekonometrik modellashtirish sohaning barqaror va samarali rivojlanishini ta'minlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lib, tahlil natijalari investitsiyalar hajmiga asosiy ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, resurslardan oqilona foydalanish va ularni optimal taqsimlash imkonini beradi. Ishlab chiqilgan ko'p omilli model va prognoz ko'rsatkichlari 2030 yilgacha turizm industriyasida investitsiyalar o'sishining ijobiy dinamikasini ta'minlashga xizmat qiladi, shu bilan birga taklif etilgan investitsion jozibadorlikni baholashning ilmiy-uslubiy yondashuvi makro, mezo va mikro darajalarda boshqaruv qarorlarini qabul qilish samaradorligini oshirishga, turizm sohasida investitsion muhitni yaxshilash va raqobatbardoshlikni kuchaytirishga zamin yaratadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

Mamatov B.S., Xujamkulov D.Y, Nurbekov O.SH.(2014). *Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. Darslik.* – T.: Iqtisod-moliya, 52 b.

Pardayev M.Q., Atabayev R. (2006). *Turistik resurslarni tahlil qilish va baholash.* - Samarqand: SamISI, 137 b.

Salayev S., Ollanazarov B. (2020). *Turistik xizmatlar sohasida investitsion faollikni oshirishning ustuvor yo'nalishlari: monografiya.* –Urganch: "Quvonchbek-Mashhura" MCHJ nashriyoti. 188 b.

Арзимияна и др. (1994). *Большой экономический словарь.* – М.: «Правовая культура», С.157.

Бочарев В.В. (1998). *Методы финансирования инвестиционной деятельности предприятий.* – М.: «Финансы и статистика». С. 7.

Газибеков Д.Г, Ангелиди М.С. (1994). Инвестиционная деятельность перед вхождением в рыночную экономику. – Т.: ТФИ, С. 7.

Игонина Л.Л. (2005). Инвестиции. Уч.пос.– М.: Экономист, 2005. – С. 25.

Кафиев Ю., Сидоров В. (2008). Время частных инвесторов пришло // Рынок ценных бумаг. № 6. С. 109.

Нешиной С.А. (2007). Инвестиции. Учебник. –М.: Дашков и К, С. 15.

Попков В.П., Семенов В.П. (2001). Организация и финансирование инвестиций.– СПб.: Питер, С. 22.